

## Bo'ring hikoyasi



11:00 / 06.08.2023 1567

- Assalomu alaykum, kaminani ovozimdan tanidingiz, shekilli-a? Ha, ha, men Bo'riman, Bo'ri! Hayron bo'lmang, kamina ham Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom haqlarida hikoya qilish niyatidaman. Siz «Qadimda bir Bo'ri bo'lgan ekan. U qo'y boqib, cho'ponlik qilgan ekan», degan hikoyani eshitganmisiz? O'sha cho'ponlik qilgan Bo'ri menman-da! Bu hikoyaning zig'ircha ham yolg'oni yo'q. Kimki ishonmasa, bekor qiladi.

O'shanda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkadan Yasribga (u paytlarda biz hozir Madina deb biladigan shahar «Yasrib» deyilardi) hijrat qilgan edilar. Bundan biz - sahro yirtqichlari xabardor edik. Ha, ularni olisdan bo'lsa ham qo'riqlab, Yasribga kuzatib kelgan edik. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Yasribga hijrat qilganlarini eshitgan va u kishiga yetisha olmay yurgan ko'pchilik qabila qavmlari turli tarafdardan Yasribga oqib kela boshlashdi. Allohning haq dini - Islom quvvatga kira boshladi. Bundan biz yirtqichlar ham behad quvonar edik. Nimaga desangiz, Islomda bizlar uchun ham kengchilik, adolat bor edi-da! U paytlarda ba'zi odamlar shu holga yetgan edilar-ki, o'z nafslari yo'lida hech narsadan toymasdilar. Bir-birlarini talashda biz yirtqichlardan ham battar edilar. Biz faqat Alloh bergan nasibalarni yeymiz. Buyurmaganiga tegmaymiz. Hamisha, har qachon shundoq bo'lgan va oxiratgacha shunday bo'lib qoladi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam odamlarni haq dinga, haq yo'lga da'vat qilayotgan edilar.

Men bir badaviy cho'ponni yaxshi bilardim. U cho'lda yasribliklarning qo'ylarini boqib yurardi. O'z ishini judayam ixlos bilan ado etar, shuning uchun bo'lsa kerak, qo'ylari semiz edi. Men har zamonda uning otaridan o'z nasibamni olib turardim. Cho'pon bo'lsa, buni payqar, lekin qasd qilib, izimga tushmas edi. Insofli, fe'li keng edi uning. Keyin biz, bo'rilar, qaysi otarga oralasak, o'sha otarga baraka kirishini cho'pon yaxshi bilardi. Chunki biz qornimiz to'yib, nafsimiz o'lgach, Allohdan shu otarga baraka kiritishni so'rar edik-da. Ha, «Bo'ri oralagan otarga baraka kiradi», degan gap bekorga emas.

Xullas, men haligi badaviy cho'ponning musulmon bo'lishini juda-juda xohlar edim. U bo'lsa tun-u kun qo'ylari bilan ovora, Yasribdagi ishlardan bexabar edi. Qani endi, iloji bo'lsa-yu, Islom dini va uning haq Payg'ambari haqida cho'ponga gapirib bersam, deb o'ylardim.

Bir kuni shularni o'ylab, uning otariga yaqin borib qolibman. Birdan biqqa semiz qo'ylarini ko'rib, ko'zim o'ynab ketdi. Biz bo'rilar shunaqamiz o'zi, o'ljaga ko'zimiz tushgandagina necha kunlardan beri och yurganimizni payqab qolamiz. Nafs yo'lida judayam sabrlimiz, ammo ko'zimiz ko'rgach, nafsimizni tiya olmaymiz. Bo'rimiz-da axir! Bitta qo'yni bo'g'izlab yelkamga oldim. Bu safar nimagadir men cho'ponni taniy olmadim. Meni ko'rishi bilan tayog'ini o'qtalib, itlari bilan quvishga tushdi. Bo'lmadi, uzoq keta olmadim. O'ljani tashlashga majbur bo'ldim. Cho'pon bo'lsa, bo'g'izlangan qo'yni orqalab, o'toviga keta boshladi. Men orqasidan qarab turib:

- Eh, qanday saxiy, qo'li ochiq cho'pon edi-ya. Bu ham xasislashibdi, - dedim alam bilan.

Shu payt cho'pon taqqa to'xtab, yon-atrofga alanglab qaradi. Keyin ko'zlarini menga tikdi.

- Ey Bo'ri, bir narsalar dedingmi? - dedi u kutilmaganda.

Sezdimki, biz bir-birimizni tushunyapmiz. Ha, Allohning qudrati bilan men odamga o'xshab gapirardim.

- Xudodan qo'rqmaysanmi? - dedim unga ta'na qilib. - Alloh menga yetkazgan rizqni og'zimdan tortib olding-a!

- Vo ajab, bu qanday mo'jizaki, bo'ri odamga o'xshab gapirsa-ya, - dedi cho'pon ajablanib.

- Ey, dunyodan bexabar, sen menga emas, o'zingning holingga ajablan.

Shundoqqina burning tagida – Yasribda ulkan mo'jizalar yuz bermoqda-yu, sen bexabarsan.

– Yasribda nimalar bo'lyapti, gapir, bilayin, – dedi cho'pon menga yaqinlashib.

– Yasribga oxirgi zamon Payg'ambari Muhammad alayhissalom tashrif buyurdilar. Alloh oldida u kishidan ulug'roq darajali Payg'ambar yo'qdir. Butun xalqni haq yo'lga chorlamoqdalar. Anavi tog'ni oshib o'tsang bas, u zotga yetishasan. Allohning Rasulini ko'rib, muborak da'vatlarini eshitasan, – dedim.

– Ey Bo'rivoy, shunday so'zlading-ki, butun borlig'im Yasrib sari talpinmoqda. Qani endi qanotim bo'lsa-yu, uchsam. Biroq podani kimga tashlab ketaman? Bular yasribliklarning omonati, tashlab ketsam omonatga xiyonat bo'ladi-ku, – dedi cho'pon afsus chekib.

– Menga qoldir. Men qarab turaman, ularga hech bir ziyon-zahmat yetmaydi, bir tukiyam to'kilmaydi.

Shunday bo'ldi, cho'pon qo'ylarini menga omonat topshirdi-da, Yasrib qaydasan, deb yo'lga tushdi.

Keyin nima bo'ldi, deysizmi? Oradan bir necha kun o'tib cho'pon qaytib keldi. Otarining sog'-omonligini ko'rib, Allohga hamdlar aytdi. Menga o'z tashakkurini bildirdi. Bildimki, u Islom diniga kirib, musulmon bo'lib kelgan edi. Yana qanday gaplar bo'пти, deysizmi? Uni Yasribda ko'rgan kishilar «Ey badaviy, qo'ylarimizni kimga tashlab kelding?» deb so'rashibdi. U esa bor gapni aytgan ekan, bu mo'jizadan Islomga kiraymi, kirmaymi deb ikkilanib yurgan qanchadan qancha odamlar imon keltirib yuborishibdi. Cho'ponning so'zlaridan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham ko'p xursand bo'libdilar va unga qo'ylari yoniga qaytishga ruxsat beribdilar.

Cho'pon kelgach, bu ishlarning suyunchisiga bitta qo'y bilan meni ziyofat qildi. Ana shunaqa gaplar...

**Erkin bobo**  
**«Hilol» jurnalining 4(49) sonidan**

*Ушбу мақола Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги  
Дин ишлари бўйича қўмитанинг 2023 йил 16 июндаги 03-07/4775-рақамли  
хулосаси асосида тайёрланди.*

